
JADID VA QADIMCHILIK: O'ZBEK JAMIYATIDAGI MADANIY KURASH

Begaliyev Nurbek

ShDPI Tarix kafedrası o'qituvchisi

nurbek050295@gmail.com

Axmadova Ruxshona

ShDPI ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbek jamiyatida shakllangan jadidchilik va qadimchilik harakatlari o'rtasidagi madaniy kurashni yoritishga qaratilgan. Unda jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari, modernizatsiya va islohotlarga intilishi hamda qadimchilarning an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolishga bo'lgan harakatlari tahlil qilinadi. Tezisdan har ikki oqimning mafkurasi, ijtimoiy hayotga ta'siri va ularning o'zaro ziddiyatlari O'zbek jamiyatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri kontekstida o'rganiladi. Ushbu kurash O'zbek jamiyatining modernizatsiya yo'lida tutgan o'rini va o'sha davr madaniy hayotidagi dinamikani ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, qadimchilik, madaniy kurash, modernizatsiya, islohotlar, O'zbek jamiyati.

Annotation. This thesis focuses on the cultural struggle between Jadidism and Conservatism that emerged in Uzbek society at the end of the 19th and the beginning of the 20th century. It examines the Jadids' ideas of enlightenment, their pursuit of modernization and reforms, as well as the conservatives' efforts to preserve traditional values. The thesis analyzes the ideologies of both movements, their impact on social life, and the contradictions between them in the context of their influence on the political, economic, and cultural development of Uzbek society. This struggle sheds light on the role of Uzbek society in its journey toward modernization and the dynamics of cultural life during that era.

Keywords: Jadidism, Conservatism, cultural struggle, modernization, reforms, Uzbek society.

Аннотация. Данная тезисная работа посвящена исследованию культурной борьбы между джадидизмом и консерватизмом, сформировавшимся в узбекском обществе в конце XIX — начале XX века. В работе рассматриваются идеи просветительства джадидов, их стремление к модернизации и реформам, а также усилия консерваторов по сохранению традиционных ценностей. Тезис анализирует идеологию обоих направлений, их влияние на общественную жизнь и противоречия в контексте их воздействия на политическое, экономическое и культурное развитие узбекского общества. Данная борьба раскрывает место узбекского общества на пути модернизации и динамику культурной жизни того времени.

Ключевые слова: джадидизм, консерватизм, культурная борьба, модернизация, реформы, узбекское общество.

Jadidchilik — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda paydo bo'lgan islohotchilik harakati bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni yangilash va zamonaviy rivojlanishga yo'naltirish edi. Jadidchilik daslab ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Turkistonda Mahmudxo'ja Behbudiy, Muvarqori Abdurashidxon o'g'li, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'jaev va boshqalar ushbu harakatning boshida turdilar. Farg'ona vodiysida esa jadidchilikning atoqli namoyandalari: A. Zohiriy, O. Mahmudov, Is'hoqxon Ibrat, Cho'lpon va boshqalar edi. [1] Ushbu davrda jadidchilik harakati bilan bir vaqtda ularning qarashlariga zid ravishda qadimchilar (eskilik tarafdorlari, islohotlarga qarshi) ham mavjud edi. Jadidlar va qadimchilar o'rtasidagi asosiy farq ularning ijtimoiy, siyosiy, va madaniy qarashlarida namoyon

bo'lgan. Jadidlar taraqqiyotni qo'llab-quvvatlagan modernist guruh bo'lsa, qadimchilar an'analarni himoya qiluvchi konservativ kuch edi. Bu qarama-qarshilik nafaqat ta'lim sohasida, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'z aksini topgan.

Jadidchilik g'oyalari:

1. Ma'rifatparvarlik: Savodxonlikni oshirish va yangi usulda ta'lim tizimini joriy etish, zamonaviy bilimlarni, xususan, matematika, tabiiy fanlar va xorijiy tillarni o'qitish. Abdulla Avloniy va Behbudiy yangi maktablar (usuli jadid) tashkil etish orqali bu g'oyani targ'ib qilishgan.

2. Modernizatsiya: Yevropa tajribasidan ilhomlanib jamiyatni zamonaviylashtirish, san'at, madaniyat va adabiyotda ilg'or g'oyalarni ilgari surish.

3. Din va fan uyg'unligi: Dinning yangicha talqinini targ'ib qilish, Qur'onga asoslangan, ammo ilm-fan va rivojlanishga qarshi bo'lmagan talqin, radikal dindorlikka qarshi chiqish.

4. Ayollarning huquqlari: Ayollarning ta'lim olish huquqini ta'minlash, ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash.

5. Milliy uyg'onish: Turkiston xalqlarining yagona madaniy uyg'onish g'oyasini ilgari surish, mustamlakachilikka qarshi kurash va milliy o'zlikni tiklash.

Qadimchilik g'oyalari:

1. An'anaviy ta'limni saqlash: Madrasalardagi eski o'qitish usullarini himoya qilish, faqatgina diniy bilimlarni ustuvor deb hisoblash, zamonaviy fanlarni o'qitishga qarshi chiqish.

2. Dinning markaziy o'rinda bo'lishi: Din jamiyat hayotining barcha sohalarida ustuvor bo'lishi kerak, deb hisoblash, ijtimoiy islohotlarni "dinga xiyonat" deb baholash.

3. Zamonaviylashtirishga qarshilik: Yevropa va rus madaniyatining jamiyatga kirib kelishiga qat'iy qarshi turish, an'anaviy turmush tarzini himoya qilish.

Jadidlarning asosiy maqsadi xalqni savodli, ma'rifatli, va ijtimoiy jihatdan faol qilish orqali Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi turish edi. Ular jamiyatni mustaqil fikrlaydigan va o'z taqdirini boshqaradigan holatga olib chiqishni istashgan. Bu harakat, ayniqsa, yangi avlod uchun milliy va ma'rifiy uyg'onishning muhim qismiga aylangan. Ular jamiyatni qoloqlik va mustamlaka zulmidan qutqarish yo'lini ta'lim va ma'rifat orqali ko'rishgan. Mavjud vaziyatda, ya'ni kuchli siyosiy-harbiy tayanchga ega bo'lgan mustamlakachi hukumat bilan millat kelajagi yo'lida bellashishning yagona yo'li, xalqni dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirish, xalqaro talablar doirasidagi mutaxassislar tayyorlashdan iborat edi.

Qadimchilar esa o'tmishdagi an'anaviy turmush tarzini saqlashni maqsad qilgan. Ularning qarashlari o'z davridagi an'analar, diniy qadriyatlar va mahalliy urf-odatlarini himoya qilishga asoslangan edi. Jamiyat hayotining barcha sohalarini diniy qoidalarga asoslashni talab qilishgan. Yevropa madaniyati va texnologiyalarini milliy o'zlikka tahdid sifatida ko'rishgan.

Dinsizlik shior qilib olingan socialistik jamiyatda har qanday diniy ulamo johil, dindorlar esa jamiyat taraqqiyotini orqaga tortuvchi qora kuchlar sifatida talqin etildi. Aslida esa, milliy-ozodlik kurashi tarixida Turkiston ulamolarining ham o'z o'rinlari bor. O'lkamizdagi jadid-qadim munosabatlari yoritilgan adabiyotlarning deyarli barchasida ulamolarga nisbatan salbiy fikrlar bildirilgan. [2]

Turkiston, xususan Farg'ona jadidlari va qadimchilari munosabatiga nazar solsak, ayrim muammolarda bu ikki guruh o'rtasida yakdillikni, boshqa ba'zi muammoli mavzularda esa qarama-qarshiliklar bo'lganligini ko'ramiz. Bir jamiyat yoxud bir tashkilot a'zolari ichida ham dunyoqarash va ijtimoiy-siyosiy saviyaning turli darajada bo'lishligini inobatga olsak, qadimchilar orasida ham ayni bir masalaga turlicha yondashilganligining guvohi bo'lamiz. Chunonchi, ayrim qadimchilar usuli jadidani ma'qul ko'rsalar ham, uni ushbu nom bilan atalmasligini talab qilganlar: «...ba'zi diyorumiz ulamolari usuli jadid tartiblari ijro qilinsun,

ammo «usuli jadid» unvoni ila atalmasun, debdurlar..».[3] Albatta, ushbu toifa qadimchi ulamolarni taraqqiyparvar ulamolar bilan bir safga qo'yib bo'lmaydi.

Jadid va qadimchi munosabatlaridagi asosiy munozarali masalalarda qadimchilar qo'yilayotgan muammoga Qur'on va Hadisdan kelib chiqqan holda yondashar edilar. Lekin jadidlar ham o'z qarashlarini shar'iy nuqtai nazardan himoya qilishga harakat qilganlar.

1920-yil voqealaridan keyin vujudga kelgan sovet rejimiga qarshi istiqlochlilik harakatining namoyondalari ikki siyosiy guruhga bo'lingan edilar: birinchi guruh amir tuzumi tarafdorlari (mujohidlar)dan iborat bo'lib, jadidlardan iborat yosh Buxoro hukumatiga va bosqinchi qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordilar. Ikkinchisi esa, Fayzulla Xo'jaev boshliq Buxoro xukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatgan respublika tuzumi tarafdori bo'lgan gurux edi. Bu guruhning asosiy maqsadi: sovetlarning ta'sirini Buxoroga o'tkazmaslik, sobiq Buxoro davlati o'rnida Rossiyadan mustaqil davlat tuzish uchun kurash; uning davlatning ichki ishlariga aralashishi va boyliklarni tashib ketishiga barham berish; o'z armiyasini tuzish orkali Buxoro mustaqilligini qo'riqlash; bu ishlarni amalga oshirish uchun yashirin tashkilot va uning a'zolarini jamlash, bosmachi deb ataluvchi guruhlarini siyosiy lashtirish, ularning boshini birlashtirib, mustaqillik uchun kurashga yoppasiga yo'naltirishdan iborat edi. [4]

Rossiyadagi fevral inqilobini Turkiston ulamolari ham zo'r quvonch bilan kutib oldilar. Mavjud imkoniyatdan milliy va diniy ishlar rivoji uchun foydalanish zarurligini targib qildilar: «...Bu inqilob va o'zgarish bizning foydamizga bo'lub, diniy-milliy ishlarimizda Komil darajada erkinlikda bo'lmakimizg'a yo'l va imkon berdi». Ko'rinib turibdiki, «Ulamo»chilar 1917-yilning dastlabki oylarida diniy ma'rifatchilik doirasida faoliyat ko'rsatishgan. Keyinchalik esa, «Sho'roi Islomiy» va «Sho'roi Ulamo» tashkilotlari o'z faoliyatlarida demokratik erkinliklar va yangi boshqaruv uslubini tatbiq etishni talab eta boshladilar. Biroq «Sho'roi Ulamo»ning vakillari fikriga ko'ra, Turkiston jamiyatining bo'lajak ichki siyosiy tuzilmasida shariat qonunlariga qat'iy ravishda amal qilinishi kerak edi.

«Ulamo» jamiyatida ham siyosiy qarashlarning turlichaligi hukmron edi. Masalan, Toshkent «Sho'roi Ulamo» si Turkiston Muxtoriyatiga ishonchsizlik bilan qaragan bo'lsa, Farg'ona «ulamo»lari esa, ularni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirishga chaqirganlar. [5] Farg'ona «ulamo»chilari muxtoriyat uchun kurashda, keyinchalik esa, istiqlochlilik harakatida jadidlar bilan yonma-yon izchil amaliy faoliyat ko'rsatdilar. Agar masalaga yaqindan yondashib qarasak, Fargona jadidlari va qadimchilari o'rtasida o'ta keskin kelishmovchiliklar bo'lmaganligining guvohi bo'lamiz.

Xulosa. Jadidchilik va qadimchilar o'rtasida nomutanosiblik, fikr va mulohazalarda yakdillikka erisha olmaganliklari ushbu davrning ziddiyatli masalalaridan biri hisoblanadi. Jadidchilik jamiyatni zamonaviylashtirish va taraqqiyotga yetaklashni maqsad qilgan bo'lsa, qadimchilik jamiyatni an'anaviy holatda saqlab qolishga harakat qilgan. Ushbu ikki yo'nalish o'rtasidagi kurash jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynagan. Jadidchilik va qadimchilik g'oyalari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbek jamiyatida madaniy va ijtimoiy qarama-qarshilikning asosiy manbalaridan biri bo'lgan. Ularning har biri o'z zamonasidagi ehtiyojlardan kelib chiqqan va jamiyatga turli xil ta'sir ko'rsatgan. Jadidlarning asosiy maqsadi xalqni savodli, ma'rifatli, va ijtimoiy jihatdan faol qilishdan iborat edi. Ular jamiyatni mustaqil fikrlaydigan va o'z taqdirini boshqaradigan holatga olib chiqishni istashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qozoqov Tohirjon Qodiraliovich “XX boshlarida Farg'ona vodisidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va jadidchilik asri” Toshkent-2001 yil
2. Дилноза Жамолова Бухоро Амирлигида Жадидлар ва Қадимчилар фаолияти (XIX аср оҳри – XX аср бошлари) Тошкэнт - 2021
3. R. Sharipov “Turkiston jadidchilik harakati tarixidan” Toshkent-2002
4. D. Alimova “Jadidchilik fenomeni” Toshkent-2022
5. “Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqiyot uchun kurash” Toshkent-1999
6. I. Quryazov “Turkistonda jadidchilik harakati va ularning faoliyati”.
7. Мухторият ва Тошкент уламоси //Улуғ Туркистон.-1918.-11 янв.
8. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
9. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 538-546.